

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XUDOYBERDIYEVA ANORABONU HAYOTOVNA

**G‘ARB FALSAFASIDA IJTIMOY STRATIFIKATSIYA VA IJTIMOY
HAMKORLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Xudoyberdiyeva Anorabonu Hayotovna

G‘arb falsafasida ijtimoiy stratifikatsiya
va ijtimoiy hamkorlikning o‘zaro bog‘liqligi..... 5

Худойбердиева Анорабону Хаётовна

Взаимодействие социальной стратификации
и социального партнерства в западной философии23

Khudoyberdiyeva Anorabonu Khayotovna

The Interaction of Social Stratification and Social Partnership
in Western Philosophy.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XUDOYBERDIYEVA ANORABONU HAYOTOVNA

**G‘ARB FALSAFASIDA IJTIMOY STRATIFIKATSIYA VA IJTIMOY
HAMKORLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fal702 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Abduxakimjon Ziyoiddinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Huseynova Abera Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Karimov Bobir Sharopovich
sotsiologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "13" may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1447 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "1" may kuni tarqatildi.
(2023-yil "29" aprel dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro'zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

Salomova H.Yu.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda XXI asrning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari aholining tabaqalanishuvini kuchaytirib, ular o‘rtasida hamjihatlik ruhini qaror toptirishni, umumijtimoiy muammolarni bartaraf etishda o‘zaro hamkorlik va sheriklik munosabatlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy G‘arb ijtimoiy-falsafiy ta’limotlarida ilgari surilgan g‘oyalar asosida ko‘p sektorli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali jamiyatdagi muammolarni hal etish, ularga oqilona yechim topish ahamiyati ortib bormoqda. Ijtimoiy stratifikatsion jarayonlar va hamkorlikka oid nazariyalar, ta’limotlarni zamonaviy umummetodologik, gnoseologik qarashlar va yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularda berilgan qonuniyatlar mohiyatini insonparvar tamoyillarga moslashtirish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida jamiyat a’zolarining tabaqalanishuv jarayonidagi yangi tendensiyalar, ularning amal qilish mexanizmlari, ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini tartibga solishga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashning muhim omili hisoblangan ijtimoiy hamkorlik jarayonlarini, aholi sotsial tarkibining dinamikasi qonuniyatlari va mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishni talab etmoqda. Shuningdek, ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarining mexanizmlarini o‘zida aks ettiruvchi va ularni ifodalovchi sotsial hodisalarning jamiyat ijtimoiy tuzilishiga pozitiv ta’sirini oshirishda jamiyat hayotida yuz berayotgan keng miqyosli tabaqalanishuv jarayonlarining tendensiyalari va ijtimoiy ishtirok, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy hamkorlikdan iborat o‘ziga xos munosabat shakllarining dialektik aloqadorliklarini tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, “inson-jamiyat-davlat” tamoyili asosida ijtimoiy davlatni barpo etishda xalq farovonligini oshirish, o‘rta sinfni mustahkamlash, kambag‘allikni qisqartirish, yoshlarni ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga oid islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. “...aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o‘shishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag‘rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo‘yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o‘zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz”¹. Yangi O‘zbekistonda yuz berayotgan keng miqyosli ijtimoiy jarayonlar orqali aholi tabaqalashuvining obyektiv jarayon sifatidagi tendensiyalari va ijtimoiy hamkorlikdan iborat o‘ziga xos munosabat shakllarining amal qilish, barqaror rivojlanish va taraqqiyotni ta’minlashda sotsial stratifikatsiya jarayonlarining jamiyat ijtimoiy tuzilishiga pozitiv ta’sirini tadqiq etish orqali totuvlik va birdamlik ruhini qaror toptirish, inson faoliyati samaradorligini oshirish, umuminsoniy qadriyatlar va milliy manfaatlar ustuvorligiga erishishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. -Б. 264.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF-6181-son “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi 208-son “Ijtimoiy sheriklik hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida ijtimoiy hamkorlik va stratifikatsiya jarayonlari bilan bog‘liq muammolar mutaxassislar diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Aflotunning “Fileb”, Arastuning “Siyosat” asarlarida, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ko‘plab allomalarning ma’naviy merosida ushbu muammo o‘z davriga mos tarzda ochib berilgan².

Sotsial stratifikatsiya va hamkorlik konsepsiyasi rivojiga G‘arb olimlaridan M. Veber, P. Sorokin, T. Parsons, R. Merton, E. Giddens, E. Dyurkgeym, O. Kont, R. Darendorf³ va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasida V. Ilin, V. Radayev, R. Tangalicheva, A. Sobolev, S. Ananev, S. Baturenko⁴ kabi olimlar asarlarida

² Платон. Диалоги Государство. / Перевод В.Карпов, А.Егунов. – Москва: Азбука, 2022. – 800 с.; Аристотель. Политика. -Москва: АСТ, 2016. – 384 с.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2004. -160 б.; Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. - Тошкент: Мерос, 2021. – 487 б.; Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. - 634 б.; Ибн Сина. Избранные философские произведения. - Москва: Наука, 1980. - 554 с.; Алишер Навоий. Махбубул-қулуб.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. -105 б. Ибн Сина. Избранные философские произведения. - Москва: Наука, 1980. - 554 с.;

³Вебер М. Основные понятия стратификации // Социол. исслед. 1994. – №5. – С. 147-156; Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – Москва, 1992. – 247 с.; Парсонс Т. Теоретическая социология и ее проблемы сегодня. – Москва, 1965. – 411 с.; Мертон Р. Социальная структура и аномия //Социология преступности (Современные буржуазные теории) / Перев. с франц. Е.А. Самарской. – Москва: «Прогресс», 1966. – С. 299-313; Гидденс Э. Социология. – Москва: URSS, 1999. – С. 701.; Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. – Москва: Наука, 1991. – С104-111; Конт О. Дух позитивной философии. - СПб, 1910.; Дарендорф Р. Современный социальный конфликт. Очерк политики свободы. – Москва, РОССПЭН, 2002. – С. 19.

ushbu muammoning sotsial struktura va ijtimoiy hamkorlikka oid ko'plab masalalari tahlil qilingan. Ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik jarayonlari G'arbda sanoatlashgan jamiyat shakllanishi bilan kuchaygan bo'lsa, uning demokratik rivojlanish davriga kirishi bilan tadqiqotlarda bu ikki jarayonning o'zaro bog'liqligi yanada kengroq tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlikka doir yondashuvlarni rivojlantirishga M. Bekmurodov, A. Xolbekov, A. Umarov, R. Ubaydullayeva, O. Ata-Mirzayev, T. Matibayev, Q. Nazarov, M. G'aniyeva, Sh. Sodiqova, O. Abduazimov, M. Qirg'izboyev, B. Berdiyev ilmiy izlanishlarida, B. To'ychiyev, H. Salomova, M. Xajiyeva, A. Huseynova, K. Kalanov, B. Karimov, A. Sharipov tadqiqotlarida o'rganilgan⁵.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy izlanishlardan unumli foydalanilgan holda, stratifikatsion jarayonlarning o'ziga xosligi va ular o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik, ularning o'zaro dialektik aloqadorligi, qonuniyat va tendensiyalari maxsus o'rganilmaganligini qayd etish lozim. Shu sababli mazkur dissertatsiyada ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda G'arb olimlarining qarashlarida stratifikatsiya jarayonlarining ijtimoiy hamkorlik bilan bog'liqligi tahlil qilingan va jamiyat hayotidagi ahamiyati ochib berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va

⁴Ильин В.И. Социальная стратификация: история и современность // Тез в срос. конф. (10-13 сент. 1996 г.) - Сыктывкар: СГУ, 1996; Радаев В. В. Социальная стратификация. // Россия – новая социальная реальность: Богатые. Бедные. Средний класс. / РАН Ин-т комплекс. Социал. Исслед; Под ред. Горшкова М.К, Тихоновой Н.Е., – Москва: Наука, 2004. – 259 с.; Тангалычева Р.К. Социальная стратификация современного российского общества: Теоретико-методологический аспект: Дисс.канд.социол.наук: - Санкт-Петербург. 2000. Соболев А. Е. Дифференциация подходов к исследованию среднего класса в стратификационной модели современного российского общества: Дисс. канд. социол.наук: - Москва. 2013. Ананьев С.А. Социальная стратификация: сущностные основания и трансформации: философский анализ: Дисс.канд.филос.наук: - Волгоград. 2008. Батуренко С. А. Социальная стратификация и неравенство в современном российском обществе: теоретике — методологический анализ современных концепций: дисс.канд.социол.наук. - Санкт-Петербург. 2008

⁵Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. - Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2020.; Холбеков А.Ж. Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг социологик таълимоти. – Тошкент: Университет, 1996; Умаров А.О. Ижтимоий-маданият тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. / Дис... социология фан.д-ри. –Тошкент: ЎзМУ, 2005.; Убайдуллаева Р.А., Атамурзаев А.Б. Ўзбекистон ёшлари: ижтимоий кифо. – Тошкент: Ижтимоий фикр, ЎзР ФА Иқтисод институти, 2008. – 130 б.; Матибаев Т.Б. Ўзбекистонда давлат ва жамият ҳаётининг демократлашуви жараёнида ижтимоий ҳамкорлик тизимини ривожлантириш омиллари. Соц.ф.д. олиш учун ёзилган дисс. - Тошкент: 2017. - Б.140. Назаров Қ. Ўзбек фалсафаси тарихи (III жилд). – Тошкент: «Мухаррир», 2020. - 504 б.; Ганиева М.Х., Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений в Узбекистане / дис...д-ра социол.наук. – Тошкент: ЎзМУ, 2010; Содиқова Ш.М. Жамиятни модернизациялаш жараёнида кексаларни ижтимоий ҳимоялашнинг социологик таҳлили. / Социол.фанл.докт. даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2016; Каланов К.К. Марказий Осиё худудидаги ижтимоий-диний табақалар (диний-экологик ва социоантропологик таҳлил). – Тошкент: 2006. -92 б.; Қирғизбоев М. Социология. – Тошкент: «Наврўз», 2017.- 320 б.; Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2008. – Б.29; Тўйчиев Б. Политическая культура и демократизация общества. - Тошкент, 2010. – 282 с.; Саломова Ҳ.Ю. Социология. – Бухоро: «Дурдона», 2022. - 328 б.; Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. – Тошкент: Абу матбуот-консалт, 2008. - 180 б.; Каримов Б. Шахслараро меҳрлилик даражасини тизимли социологик ассессментлаш орқали оптималлаштириш. Социол.фанл.докт. илмий даражаси учун дисс. – Тошкент, 2021; Шарипов А.З. Ижтимоий ҳамкорлик тўғрисидаги замонавий қарашларнинг тинчлик ва барқарорликни мустаҳкамлашдаги ўрни. Фалсафа фан. ном. дисс. – Тошкент, 2011. – 140 б.

ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026-yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi G'arb falsafasida stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik jarayonlarining o'zaro aloqadorligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik jarayonlarining tarixiy genezisi, tushunchalari va mohiyatini tadqiq etish;

Sharq va G'arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurida tabaqalanishuv va ijtimoiy hamkorlikka oid konseptual yondashuvlarning shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;

ijtimoiy stratifikatsion jarayonlarning ontologik, aksiologik va epistemologik asoslari hamda o'zgaruvchanlik xususiyatlarini ochib berish;

ijtimoiy hamkorlik aloqalarining shakllanish omillari, modellari va konstruktiv yo'nalishlarini tadqiq etish;

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiyalashda ijtimoiy hamkorlikni o'rnatish va mexanizmlarini joriy etishga oid nazariy xulosalarni asoslab berish;

yosh avlodni hamkorlik va hamjihatlik ruhida tarbiyalashga, o'rta qatlamni mustahkamlash va kambag'allikni qisqartirishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyeksi sifatida zamonaviy G'arb falsafasidagi stratifikatsion o'zgarishlar va ijtimoiy hamkorlikning dialektik aloqadorligiga oid konseptual nazariya va qarashlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ijtimoiy hayotda yuz berayotgan stratifikatsion o'zgarishlar va ijtimoiy hamkorlikning amal qilish mexanizmlarining obyektiv hamda subyektiv omillarini tizimli tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, sotsiologik tadqiqot va statistik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

G'arb falsafiy qarashlarda stratifikatsiya va hamkorlik to'g'risidagi ilmiy, falsafiy ta'limotlar zamonaviy umummetodologik, gnoseologik qarashlar va yondashishlarda berilgan qonuniyatlar mohiyatini insonrarvarlikka moslashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

Yangi O'zbekistonda jamiyat hayotidagi yuz berayotgan keng miqyosli ijtimoiy jarayonlar orqali aholi tabaqalashuvining obyektiv jarayon sifatidagi tendensiyalari (turmush tarzining farovonlashuvi, tadbirkorlikning ijtimoiy harakatga aylanishi, inson kapitalining yuksalishi) va ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy sheriklikdan iborat o'ziga xos munosabat shakllarining amal qilishi asoslab berilgan;

ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarining mexanizmlarini o'zida aks ettiruvchi tushunchalar "tenglik", "maqom", "mavqe" va ularni ifodalovchi sotsial hodisalarning jamiyat ijtimoiy tuzilishiga pozitiv ta'sirini oshirish uchun analitik baza bo'lishi isbotlangan;

O'zbekistonda rivojlanish va taraqqiyotni barqaror ta'minlashda stratifikatsion jarayonlar va ijtimoiy hamkorlikning o'zaro aloqadorligi jamiyat taraqqiyotida inson faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, ijtimoiy himoyalash, umuminsoniy qadriyatlar va milliy manfaatlar ustuvorligiga erishishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli jamiyatlar, xususan, mamlakatimiz va jahonning turli etnik qatlamlari tarkibidagi o'zgarishlarni real baholash, prognozlash mexanizmlari ishlab chiqilgan;

o'rta sinf qatlamini shakllantirish, uning fuqarolari turmush darajasini yanada oshirish, ijtimoiy faolligini yuksaltirishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

aholini ijtimoiy himoyalash va mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda fuqarolarning roli, o'rni va ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy hamkorlik tamoyilining o'rni asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati stratifikatsion jarayonlar, ijtimoiy hamkorlik tamoyilining tinchlik va taraqqiyotni mustahkamlashdagi o'rni va jamiyat boshqaruvidagi rolini tadqiq etishga oid izlanishlarda, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy antropologiya, konfliktologiya, jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratilgan o'quv metodik adabiyotlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Senati va Qonunchilik palatasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va turli ijtimoiy institutlarning fuqarolar turmush darajasining o'zgarishi asnosida ijtimoiy tabaqalanish tarkibi va mazmunining optimallasuvi, ijtimoiy faolligini oshirish, "O'zbekistonda 2022-2032-yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasi"ni ishlab chiqishga qaratilgan ishlarda qo'llanilishi mumkinligi, shuningdek, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlardan o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'arb falsafasida ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik to'g'risidagi zamonaviy umummetodologik, gnoseologik qarashlar va yondashuvlarning jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

G'arb falsafiy qarashlarda stratifikatsiya va hamkorlik to'g'risidagi ilmiy, falsafiy ta'limotlar zamonaviy umummetodologik, gnoseologik qarashlar va yondashishlarda berilgan qonuniyatlar mohiyatini insonrarvarlikka moslashtirish

mexanizmlariga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106 sonli “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G‘arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi” (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 20 dekabrda 04/11-8303-son ma‘lumotnomasi). Natijada, G‘arb falsafasida ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik to‘g‘risida yaratilgan ilmiy, falsafiy ta‘limotlarning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni va uning yo‘nalishlariga doir umummetodologik qarashlarning tizimlashtirilishiga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda jamiyat hayotidagi yuz berayotgan keng miqyosli ijtimoiy jarayonlar orqali aholi tabaqalashuvining ob‘yektiv jarayon sifatidagi tendensiyalari (turmush tarzining farovonlashuvi, tadbirkorlikning ijtimoiy harakatga aylanishi, inson kapitalining yuksalishi) va ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy sheriklikdan iborat o‘ziga xos munosabat shakllarining amal qilishiga oid nazariy umumlashmalar, taklif va tavsiyalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2021-2022-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida, jumladan, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini targ‘ib qilish, ushbu yo‘nalishdagi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tizimli va samarali tashkil qilish” 1-bandi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan ma‘naviy-ma‘rifiy vazifalar ijrosini tizimli ta‘minlash va samarali muvofiqlashtirib borish bo‘yicha barcha kengashlarning bu boradagi ish dasturlarini davr talablari asosida yangidan tuzish va uni amalga oshirilishini ta‘minlash”da foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 11 yanvardagi 7-son ma‘lumotnomasi). Natijada, stratifikatsion jarayonlar va ijtimoiy hamkorlikning o‘zaro aloqadorligini empirik tadqiqotlar orqali o‘rganilib, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini singdirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarining mexanizmlarini o‘zida aks ettiruvchi tushunchalar “tenglik”, “maqom”, “mavqe” va ularni ifodalovchi sotsial hodisalarning jamiyat ijtimoiy tuzilishiga pozitiv ta‘sirini oshirish uchun analitik baza bo‘lishiga oid nazariy xulosalar va amaliy takliflardan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 2021-2022 yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot va tashviqot ishlarida, jumladan, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan IV. Partiyaning ijtimoiy sohani rivojlantirish sohasida vazifalari ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati–O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashining 2023 yil 16 fevraldagi 01-27/50-son ma‘lumotnomasi) Natijada, yosh avlodda mustahkam vatanrarvarlik g‘oyasi hamda qat‘iy fuqarolik rozisiyasini shakllantirish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni samarali amalga oshirishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda rivojlanish va taraqqiyotni barqaror ta‘minlashda stratifikatsion jarayonlar va ijtimoiy hamkorlikning o‘zaro aloqadorligi jamiyat taraqqiyotida inson faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, ijtimoiy

himoyalash, umuminsoniy qadriyatlar va milliy manfaatlar ustuvorligiga erishishdagi ahamiyatiga oid xulosalar va tavsiyalardan Buxoro viloyati teleradiokomraniyasining 2021-2022 yillarda efirga uzatilgan “Assalom Buxoro”, “Zamondosh” teleko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda hamda tadqiqotchi bilan bevosita suhbat uyushtirish jarayonini tasvirga olishda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokomraniyasining 2022 yil 13 dekabrda 311-son ma’lumotnomasi). Natijada, efirga uzatilgan ko‘rsatuvlar yoshlarni barkamol inson bo‘lib yetishish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, teletomoshabinlarning ushbu masalalar yuzasidan kerakli ma’lumotlarni olish imkonini bergan, ularning ilmiyligi va ommaborligini oshishiga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik kategoriyalarining tadqiqiga oid nazariy-metodologik yondashuvlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida sotsial stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlikka oid klassik yondashuvlarning konseptual asoslari, Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ijtimoiy tabaqalanishuv, hamkorlikka oid qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi hamda zamonaviy G‘arb falsafiy ta’limotlarida sotsial stratifikatsiya, ijtimoiy hamkorlik dialektikasiga oid yondashuvlar, stratifikatsiya, hamkorlik tushunchalari, uning genezisi ochib berilgan.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, insoniyat hayotidagi jamiyatning strukturasi tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, uning asosida diniy, etnik, milliy, sinfiy, demografik, hududiy birliklarning borligiga guvoh bo‘lamiz. Unda istiqomat qilayotgan insonlar esa u yoki bu jihatdan ijtimoiy mavqe, kasbiy daraja, demografik xususiyat va turli xil sotsial guruhlarga mansubligi, bilan sotsial

tengsizlikni keltirib chiqaradi. Sotsial stratifikatsiya – bu odamlarning qandaydir yig‘indisini sotsial sinfga, ierarxik martaba qatlamiga tabaqalanishidir. Strata (lot. *stratum*-qatlam, qavat, *fesere*-bo‘lmoq) – o‘xshash sotsial ko‘rsatkichlar kasb etgan odamlarning sotsial qatlamidir. “Sotsial stratifikatsiya – bu odamlar (aholi) muayyan jamoasining ierarxik rang (pillapoya)ga mos ravishda turli sinflarga differentsiyalashuvi (tabaqalanishi) bo‘lib, u yuqori va quyi qatlamlarning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Uning asosi va mohiyati – u yoki bu ijtimoiy birlik a‘zolari orasida huquq va imtiyozlarning, mas‘uliyat va majburiyatlarning notekis taqsimlangani, sotsial qadriyatlarining, hokimiyat va ta‘sir kuchining mavjudligi yoki mavjud emasligidir. Sotsial stratifikatsiyaning konkret shakllari juda ko‘p sonli va turli-tuman. Biroq ular turli-tuman bo‘lishiga qaramay, asosiy uchta shaklga: iqtisodiy, siyosiy hamda kasbiy (professional) stratifikatsiyaga keltirilishi mumkin. Odatda, bular hammasi o‘zaro chambarchas qorishib ketadi. Sotsial stratifikatsiya - bu har qanday tashkillashtirilgan jamiyatning doimiy tavsifi (xarakteristikasi) bo‘lib hisoblanadi”⁶. Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlar ham eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. Eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan.

Uyg‘onish va Yangi asr olimlari ham tengsizlik muammolarini muhokama qilishni davom ettiradilar. J.J. Russo, G.Gegel tug‘ma yoki orttirilgan tafovutlarga asoslangan ijtimoiy qatlamlarni yoki sinflarni shakllantirishda jamiyatda muammolar bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tgan. A. Smit, Sen-Simon kabi olimlar ijtimoiy sinf tushunchasini ijtimoiy fanga kiritdilar. Ijtimoiy tengsizlikni o‘rganishga zamonaviy yondashuvlar orasida T.Parsons, K.Devis, U.Mur, R.Mertonning asarlarida yoritilgan *funksional yondashuv* eng rivojlangan yondashuv sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu yo‘nalish vakillari ijtimoiy tabaqalanishning mavjudligini har qanday jamiyatda odamlarning ijtimoiy ierarxiyadagi m‘lum bir tuzilishga tegishli bo‘lishi zarurati bilan asoslab berishadi.

Dissertant fikricha, bugungi kundagi zamonaviy jamiyatlarning sotsial-sinfiy strukturasi uchta asosiy *yuqori*, *o‘rta* va *quyi* sinfga bo‘lish qabul qilingan. Jamiyat sotsial strukturasi tadqiq etishda jamiyatning sotsial tarkibi, sotsial-sinfiy tabaqalanishga to‘g‘ri kelmasligini e‘tiborga olish lozim. Masalan, yuqori malakali ishchi oladigan daromadlari, hayot tarzi, o‘z ehtiyojlarini qondirish usullari bo‘yicha o‘rta sinfga, past malakali ishchi quyi sinfga mansub bo‘lishi mumkin. Har qanday jamiyat hech kimni o‘zboshimchalik bilan sotsial stratifikatsiya strukturasi o‘zgartirib yuborishga yo‘l qo‘ymaslik uchun sotsial notenglikni institutlashtirishga intiladi. Bunga xizmat qiladigan sotsial ierarxiyani takroran yaratuvchi va himoya qiluvchi alohida mexanizmlar mavjud.

Tadqiqotda stratifikatsiya ijtimoiy falsafaning muhim yo‘nalishi hisoblanishi asoslab berilgan. Bu tushuncha yordamida jamiyatning turi, rivojlanishi, barqarorligi, iqtisodiy salohiyati, sinflar va sotsial qatlamlarning rivojlanish qonuniyatlari o‘rganiladi, olingan natijalar jamiyatni yanada rivojlanishi uchun

⁶ Сорокин П. Социальная и культурная мобильность // Сорокин П. Человек, цивилизация, общество / Под ред. А.Ю. Соломонова. – М., Политиздат, 1992. – С.297-307.

hayotga tatbiq etiladi. Umuman olganda, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashning asosi va eng muhim omili turli millat vakillari va turli toifadagi insonlar o'rtasidagi birlikni, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlay olishdir. Jamiyatning taraqqiyoti va rivojlanishi uchun sotsial stratifikatsiya hamda ijtimoiy hamkorlik g'oyalari o'zaro aloqadorlikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy hamkorlik masalasini nazariy o'rganishni chuqurlashtirish va bu borada erishilayotgan ilmiy natijalarning amaliy tadbiqini yo'lga qo'yish jamiyatda tinch, osuda hayotni mustahkamlashning hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, ijtimoiy hamkorlik fenomenining nazariy tahlili bugungi kunda ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarb masaladir, chunki mazkur tushuncha har qanday jamiyatda boshqaruvni samarali amalga oshirish yoki bozor munosabatlarini tartibga solishning negizi bo'lib, nazariy-metodologik jihatdan kam tadqiq etilgan.

Dissertant fikricha, insoniyat tarixida jamiyatlar rivojlanishida turli nizolar, kelishmovchiliklar yuz bergan. Ularni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlar va izlanishlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy hamkorlik masalalari bilan bog'liq bo'lgan. Ijtimoiy nizolar, ularning insonlararo munosabatlarda kelib chiqishi, sabab oqibatlari to'g'risidagi qarashlar qadimdan bugungi kunga qadar diqqat markazida bo'lib kelgan.

Ijtimoiy hamkorlik ijtimoiy munosabatlarning maxsus shakli sifatida, qator konsepsiyalar, nazariyalarda "umumiy tinchlikka asoslangan davlat", "ijtimoiy hamkorlik davlati", "industrial va postindustrial jamiyat" kabi g'oyalarning ilgari surilishi bilan o'zaro bog'liq ravishda olib qaraladi. Bunga ko'ra, yollanma ishchilar, mulk egalari va davlat ijtimoiy hamkorligining subyektlari hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda, ushbu subyektlarning manfaatlarini ifoda etuvchi institutlar (tashkilotlar) sifatida kasaba uyushmalari, ish beruvchilar uyushmalari, hukumat, shuningdek, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari chiqadi. Bunda davlat va hokimiyat strukturalarining o'rni va ahamiyati benihoya muhimligini ta'kidlash joiz. Zero, davlat bu jarayonda yirik ish beruvchi – tadbirkor sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada, *ijtimoiy hamkorlik* bu – ijtimoiy mehnat sohasida ishchilar, ish beruvchilar (tadbirkorlar), davlat hokimiyati hamda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari manfaatlarining muvofiqligi va muhofazasi, o'zaro shartnomaga intilish, konsensusga erishish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning muhim yo'nalishlari bo'yicha yagona pozitsiyani ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning sivilizatsiyalashgan shaklidir, - deya ta'rif keltirilgan. Shu ma'noda, ijtimoiy hamkorlik – jamiyat barcha a'zolarining, ijtimoiy guruhlarning umumiy maqsad yo'lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifodalaydigan tushunchadir.

Stratifikatsion jarayonlarning ijtimoiy mobillik, ijtimoiy harakatlar bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etish – jamiyatdagi harakatchan qatlamlarning ijtimoiy holatini o'rganishga imkon beradi. Shuningdek, stratifikatsion jarayonlar holatini o'rganish orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar mazmuni va ko'lami haqida xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ijtimoiy stratifikatsiya va ijtimoiy hamkorlik jarayonlarining shakllanish omillari, xususiyatlari va amal qilish mexanizmlari”** deb nomlanib, unda sotsial stratifikatsion jarayonlarning ontologik va epistemologik, aksiologik asoslari va o‘zgaruvchanlik xususiyatlari, ijtimoiy hamkorlik aloqalarining shakllanish omillari, model va konstruktiv yo‘nalishlari ilmiy-falsafiy tahlil etilgan.

Dissertant fikricha, ijtimoiy tabaqalanishning falsafiy asoslarini qidirishda uning ontologik asoslarini tadqiq etish yanada to‘g‘ri bo‘ladi va ijtimoiy ontologiyaning kategoriyalari sifatida alohida ijtimoiy hodisani aks ettiradigan tenglik va tengsizlik degan xulosaga kelinadi. Ammo bu xususiyatlar mavjudlik mantig‘iga asoslangan xususiyat emas, balki tushunchalarning muayyan mantig‘ida aks ettirilgan xususiyatlar ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Stratifikatsiya jarayonlarining asosi, nafaqat jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini, balki umuman bo‘lishning o‘ziga xos xususiyatlari yotadi. Ushbu jarayonlarda insonning dunyoqarashi va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyati muhim rol o‘ynaydi, uni o‘rganish o‘rganayotgan hodisaning epistemologik asoslarini tushunishga hamda ijtimoiy tabaqalanishni chindan ham falsafiy tahlil qilishga imkon beradi.

Tadqiqotda faqat insonlar uchun oqilona fikrlash qobiliyati, jamiyatda sodir bo‘layotgan tabaqalanish jarayonlarining epistemologik asosi ekanligi ta’kidlanadi. Bu shaxsni aniq va obyektiv ravishda tushunish, tushunchalarda fikr yuritish, izchil, o‘lchanadigan, shu bilan mavjudlikni, o‘z mantig‘iga ko‘ra harakat qilishni o‘zlashtirish qobiliyatidir, bu odam o‘zi yaratgan hamda atrofidagi jamiyatda kuzatgan aloqalari, munosabatlarini ierarxiyalashga imkon bergan. Ushbu yangi ijtimoiy subyektlarning amaliy ahamiyati, foydaliligi va samaradorligi, umuman, jamiyatni tarkibiylashtirishni yanada mustahkamlash hamda rivojlantirishda, keyin esa uni ijtimoiy tabaqalanishida muhim rol o‘ynadi.

Dissertatsiyada ijtimoiy tabaqalanishning epistemologik asoslarini qidirishda, Veberga murojaat qilinib, bu ratsionalizatsiya ekanligi aytilgan. Biroq Veber uchun, Yevropa jamiyatining rivojlanishining ma’lum bir tashqi belgisini, tendensiyasini, umumiy yo‘nalishini anglatadi. So‘nggi vaqtlarda ushbu indikatorni identifikatsiyalashga, masalan, ziyolilarga (mavjud diplomlar yoki ilmiy darajalar bo‘yicha) yoki mashhur va taniqli odamlarga-ommaviy axborot vositalarida ularning ismlarini aytib berish faktlari soniga qarab qo‘llashga harakat qilinmoqda. Stratifikatsiya g‘oyasi aksiologik jihatni o‘z ichiga oladi, chunki unda maqom tushunchasi asosiy rol o‘ynaydi. “Holat” so‘zi lotincha davlat, pozitsiya degan ma’noni anglatadi. Dastlab, ijtimoiy maqom tushunchasi yuridik shaxsning huquqiy maqomini anglatadi. Umumiy ma’noda ijtimoiy maqom deganda, shaxsning jamiyatda egallagan mavqeyi, yoshi, jinsi, kelib chiqishi, kasbi, oilaviy ahvoli tushuniladi. Qoida tariqasida, ular ijtimoiy kelib chiqishni, millatni tashkil etadigan tabiiy holatni ajratadilar.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, shubhasiz, ijtimoiy hamkorlik iqtisodiyot subyektlari o‘rtasidagi kelishuvlarni optimallashtirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq bu serqirra jarayonni faqatgina, iqtisodiy munosabatlar doirasi bilan cheklab qo‘yish, uning mohiyatini anglash imkonini bermaydi.

Jamiyatda muvozanatlashtiruvchi jarayonlarning amal qilishi va ularning o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmi mavjudligini ko‘pgina olimlar “gomeostaz” tushunchasi bilan ifodalaydilar⁷. Ma’lumki, “gomeostaz”^{*} tushunchasi, hozirgi zamon kibernetika fani vakillari tomonidan biologik tizimlarni strukturali-funksional tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan edi⁸. Bu manbada fikrlar aslida, tabiatda, qolaversa, inson tomonidan yaratilgan texnik vositalar tizimida o‘zini-o‘zi boshqaradigan, saqlay oladigan tizim to‘g‘risida ketmoqda. Kibernetika fanida bo‘lgani singari jamiyatda ham shu kabi tizim amal qiladi. Izdan chiqqan jihatlarni qayta tiklovchi, shuningdek, ijtimoiy o‘zgaruvchanlik omillarini tartibga soluvchi muvozanatlash mexanizmlari jamiyatga ham tegishlidir. Bunda jamiyat o‘z tuzilmalari faoliyatini tartibga soluvchi, ro‘y beruvchi o‘zgarishlar va barqarorlikning zaruriy me‘yoriy chegaralarini ta‘minlay oluvchi tizim hisoblanadi. Ijtimoiy hamkorlik esa jamiyatning aynan o‘zini-o‘zi muvozanatlovchi va barqarorlashtiruvchi omilidir.

Har qanday ma’rifiy jamiyat o‘z hayotida muvozanatni saqlashni maqbul ko‘radi, o‘zini-o‘zi tartiblashga urinadi. Bunda “sotsiostazis”⁹ qoidasi samarali bo‘lib, u tartibga soluvchi eng maqbul me‘yorlarni, shu ma’noda jamiyatning barcha qismlari muvozanatini nazarda tutadi. Bir toifa tadqiqotchilar ijtimoiy hamkorlikni butunlay rad etib, xayoliy bir yoqlama fikr sifatida qarshadi. Ayniqsa, ijtimoiy ziddiyat konsepsiyalarining asosiy vakillaridan biri – R.Darendorf uning o‘rniga ziddiyat modelini taklif etadi. R.Darendorfning ziddiyat modeliga ko‘ra, hokimiyat tarixning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ijtimoiy tengsizlikning zarur elementidir. Ijtimoiy guruhlar o‘z mavqeyi va ijtimoiy tuzilmadagi o‘rniga ko‘ra, o‘zaro farqlanadi, shuning uchun ular o‘rtasida doimiy ziddiyat va kurash mavjud. Ammo bu fikrga qo‘shilish qiyin. Chunki bunday holda jamiyat ijtimoiy nizolar qurshovida bo‘ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Dissertant ijtimoiy hamkorlik masalasida meriokratik modelni tahlil qilib, bu modelda individ homiylarsiz, ota-onasi, qarindoshlari, do‘stlari va tanish-bilishlarisiz o‘z qobiliyati bilan yutuqlarga erishishi zarur – bular ham adolat tushunchasiga zid emasligini ta’kidlaydi. Lekin meriokratiya o‘z mohiyatiga ko‘ra texnokratik, elitar konsepsiyadir. U insonni kompleks tarzda emas, balki bir yoqlama talqin etadi. Meriokratiya tarafdorlari talant muammosini bo‘rttirib ko‘rsatishadi-yu, lekin uni mavjud elitadan qidiradilar, oddiy xalq orasidagi yashirin daholarni yuzaga chiqarish bilan qiziqmaydilar. Insoniyat tarixida ko‘plab daholar oddiy xalq orasidan yetishib chiqqanligiga ham ko‘plab dalillar mavjud. Meriokratik model vakillari namunaviy ta’lim tizimini yaratish yo‘lida iqtidorsiz va qobiliyatsizlarni segregatsiya qilish (ajratib tashlash) g‘oyasini ham ilgari surdilarki, bu insonparvarlikka ziddir, chunki u insonlararo munosabatlarga uyg‘unlik bag‘ishlamaydi.

⁷Мальцев Г.В. Социальная справедливость и право. – Москва: Мысл, 1977. – С.44-49

^{*}Gomeostaz (yunoncha homoios-o‘xshash va stasis-muvozanatda bo‘lish) - tirik organizmlarning ularning ichki harakat doimiyligiga tahdid soluvchi ichki va tashqi muhit omillarini chetlatish yoki chegaralashga qaratilgan moslashuvchanlik reaksiyalari yig‘indisi.

⁸Эшби У. Росс. Введение в кибернетику.- Москва: Иностранная литература, 1962. -С.385-386

⁹ Матибаев Т.Б. Ўзбекистонда давлат ва жамият ҳаётининг демократлашуви жараёнида ижтимоий ҳамкорлик тизимини ривожлантириш омиллари / Соц.ф.д. олиш учун ёзилган дисс.- Тошкент: 2017. - Б.140.

Ijtimoiy hamkorlik nuqtayi nazaridan bu kabi modellarda odamlarni aqliy qobiliyatiga ko'ra tabaqalashtirishga, ya'ni biologik meriokratiyani asoslashga urinish, odamlarning jamiyatdagi o'rni irsiy jihatdan oldindan belgilanadi, degan reaksiya g'oya mavjud¹⁰. Lekin hozirgi zamon biologlarining ko'pchiligi ijtimoiy tengsizliklarning irsiy (genetik) sabablari eksperimental isbotlangan emas, deb fikr bildiradilar. E.Vilson ham ijtimoiy maqom irsiy jihatga bog'liq degan g'oyani isbotlab bo'lmaydi, deb hisoblaydi¹¹.

Albatta, hayotda muvaffaqiyatlarga erishishda irsiy omillarni batamom inkor etish qiyin. Ko'pchilik iqtidorli odamlarning farzandlari ham mashhurlik darajasiga yetganlar. Shu bilan birga, aql darajasining yuqori koeffitsienti iqtisodiy va siyosiy sohada ko'plab yutuqlarga sababchi bo'ladi, u yoki bu shaxsning maqomini belgilaydi. Ammo bunda aniq hisob-kitob, qonuniyat yoki sabab-oqibat munosabatlarini topish qiyin.

Oila tarbiyasi, meros va irsiyat o'z-o'zidan insonga afzalliklar bermaydi. Ingliz olimi D.Fillips tug'ma qobiliyatga ega odamlar o'z qobiliyati yordamida katta ijtimoiy afzalliklarga ega bo'lishga haqlimi, degan muammoni o'rta tashlaydi. Xuddi shu narsaga go'zal tashqi ko'rinish yoki beqiyos jismoniy kuchga ega shaxslar ham loyiqmi, degan savolni qo'ygan¹².

Jamiyat hayotining meriokratik yo'l bilan talqin etilishiga liberal (libertarian) model vakillari e'tiroz bildiradilar. Klassik liberalizm (J.Lokk, Volter, A.Smit, G.Srenser) g'oyalarini hozirgi zamon G'arb jamiyati realliklariga moslashtira olgan libertarizm erkin bozor tizimini to'la-to'kis yoqlab, bozordagi yakka shaxs hatti-harakatini chegaralashi mumkin bo'lgan har qanday siyosiy, axloqiy va diniy qadriyatlarni qat'iy rad etmoqda. Ular shaxsning individual erkinliklari va huquqlari ijtimoiy manfaatlardan ustun deb talqin etadilar.

Liberal va unga yaqin bo'lgan libertarian modeliga nisbatan konservativ model vakillari qarama-qarshi nuqtayi nazarga ega. Konservatizm g'oyasi (L.Straus, E.Fogelin, J.Xart) jamiyatning elitar, tabaqalashgan tuzilmasi g'oyasini kuchli himoya qiladi. Hozirgi zamon konservatizmi ham jamiyatdagi ijtimoiy stratifikatsiyaning rolini oshirib ko'rsatishga urinadi.

Ijtimoiy hamkorlikning egalitaristik modelida jamiyatning tobora o'rta holatga o'tayotganligi to'g'risida fikr yuritilib, olimlar ikki xil tendensiyaga to'xtalib o'tadilar. Bulardan birinchisi, nemis olimi I. Fletcher gomogenlashuv, ya'ni individlarning o'z guruhiga mansubligini his qilmaslik va ularning "industrial sivilizatsiya umumiy tizimining ko'chmanchilarga aylanishi deb baholaydi". Ikkinchi tendensiyada esa (E.Fromm, Markuze, A.Toffler) ehtiyojlar hayot sharoiti, turmush darajasi va tarzining tobora bir xillashib borishi jamiyatning egalitarizmga yuz tutishi deb baholanadi. Ammo amaliyot va maxsus ilmiy tadqiqotlar G'arb jamiyatlari tenglashish tomon bormayotganligini ko'rsatadi. Aslida esa chuqur iqtisodiy (mulkiy) tengsizlik saqlanib qolmoqda.

¹⁰Лолер Д. Коэффициент интеллекта, наследственность и расизм. - Москва: 1982. -С.322

¹¹Wilson E. Sociobiology. The New Synthesis. - Cambridge, 1975. - P. 554-555

¹²Phillips D. Equality Justice and Rectification. An Exploration in Normative Sociology. London, New York, San Francisco, 1979. - P. 38

Demak, ijtimoiy hayot sharoitining standartlashuvi ijtimoiy tenglik muammolarini hal etmaydi.

Dissertant fikricha, ijtimoiy hamkorlikning yuqorida tahlil qilingan modellari jamiyatimizdagi voqeliklarga aloqasizdek tuyulishi mumkin. Lekin barqaror taraqqiyotga erishgan mamlakatlar tajribasini o'rganish mamlakatimiz rivojini uzoq muddatga bashorat qilishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda barqaror rivojlanish va taraqqiyotni ta‘minlashda stratifikatsion jarayonlar va ijtimoiy hamkorlikning o‘zaro aloqadorligi”** deb nomlanib, unda ijtimoiy sohalarni modernizatsiyalashda stratifikatsion jarayonlar va hamkorlik mexanizmlarini joriy etishning o‘ziga xosliklari, taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish hamda yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida hamjihatlik, hamkorlik ruhini shakllantirishning dolzarb tamoyillari, vazifalari ilmiy-falsafiy tahlil etilgan.

